



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
2-сон



МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев, Фарход Ҳамидович Набиев Порахўрлик ва коррупциянинг хусусиятлари ва тараққийга таъсири	5
Шаҳобиддин Зиядуллаевич Ўрозов Темурийлар даври нақшбандия тарихати вакили Хожа Алоуддин Аттор ўғитлари ва унинг фалсафий моҳияти	10
Ҳасан Абдусаитович Рахимов Меҳмонхона хўжаликларида кўрсатиладиган хизматларнинг мазмуни билан боғлиқ назарий масалалари	15
Bekniyoz Baxtiyor o'g'li Suvonov Ho'jalik yurituvchi subyektlarda menhat sarfining iqtisodiy mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari	18
ИННОВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ	
Фароғат Болтаевна Шакирова Инновацион иқтисодиётга трансформациялашув жараёнида айрим муаммолар ва уларни бартараф этишнинг аҳамияти	23
Азамат Абдукаримович Касимов Саноат ривожланишини эконометрик моделлар асосида тадқиқ қилишнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Тухта Даминович Маматкулов Иқтисодиётни ривожлантириш ва рақамлаштиришда саноат 4.0 нинг аҳамияти	33
Dilafuz Saidbaxromovna Saidaxmedova Tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini oshirish imkoniyatlari	39
Шаҳноза Суёновна Рузиева Сунъий интеллект технологиялари ва уларнинг таълимни ривожлантиришдаги самараси	42
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Нилуфар Абдувахидовна Юлдашева Саноат корхоналарида инновацион ривожлантириш стратегиясини ишлаб чиқиш ва амалга оширишнинг концептуал асослари	47
Асроржон Ахроржон ўғли Илёсов Саноат маҳсулотлари экспортидаги асосий тенденциялар: миллий ва ҳудудий таҳлил	52
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Шодиёр Абдихалилович Султонов Хизмат кўрсатиш соҳасида кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш масалалари	56
Анвар Нематович Холиқулов Хизмат кўрсатиш корхоналарида сервис сифати ва маданиятини оширишга эришиш йўллари	62
Xurshidaxon Alisherovna Yegamberdiyeva O'zbekiston temir yo'llari sharoitida vagon parkini aniqlashda qo'shimcha omillarni hisobga olish	65
Асқар Ахрорович Сиддиқов Умумий овқатланиш корхоналарида инновацияларнинг таснифланиши	69

<https://doi.org/10.1016/j.jbusres.2021.09.061>

8. UNIDO. Pocket Guide to World Statistics – 2020. Series V, №42. p.1-19.
9. [https://uza.uz/uz/posts/sanoat-kooperaciyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257](https://uza.uz/uz/posts/sanoat-kooperaciyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257?q=%2Fposts%2Fsanoat-kooperaciyasi-va-mahalliyashtirish-milliy-iqtisodiyotning-ustuvor-yonalishi_354257)
10. <https://stat.uz>

Т.Маматкулов	T.Mamatkulov
<p>Значение «Индустрии 4.0» в развитии и цифровизации экономики</p>	<p>The importance of Industry 4.0 in the development and digitalization of the economy</p>
<p>Аннотация: в этой статье объясняется важность и влияние Индустрии 4.0 на социально-экономическое развитие страны. Глубоко изучены существующие проблемы в развитии экономики, особенно в развитии инновационной среды в отраслях промышленности. Проведен анализ состояния промышленного производства по видам экономической деятельности, его доли в ВВП и экспорте, а также по отраслям региона. Также предлагаются важные направления для разработки перспективных стратегий устойчивого развития отрасли.</p> <p>Ключевые слова: Индустрия 4.0, цифровая экономика, социально-экономическое развитие, инновации, производство, технологии.</p>	<p>Abstract: This article explains the importance and impact of Industry 4.0 on the socio-economic development of the country. The existing problems in economic development, especially in the development of the innovation environment in industrial sectors, have been studied in depth. The analysis of the state of industrial production by type of economic activity, its share in GDP and exports, as well as by regional industry is held. It also proposes important areas for the development of promising strategies for sustainable development of the industry.</p> <p>Key words: Industry 4.0, digital economy, socio-economic development, innovation, manufacturing, technology.</p>

Dilafruz Saidbaxromovna Saidaxmedova – JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası dots.v.b.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

<p>Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni shakllantirish va tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan. Unda raqamli tadbirkorlik va raqamli kompetensiya tushunchalarining mohiyati yoritib berilgan</p> <p>Kalit so‘zlar. Raqamli iqtisod, biznes, raqamli tadbirkorlik, raqamli texnologiyalar, kompetensiya, tadbirkorlik kompetensiyasi, raqamli kompetensiya.</p>
--

Kirish. Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, biznes sohasida elektron hukumat tizimini takomillashtirish, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada jadallashtirish, shuningdek, raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishni ko‘zda tutuvchi ustuvor loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni joriy etishning dolzarb masalalari va ijtimoiy-iqtisodiyotga ta‘sirini o‘lchash bilan bog‘liq tadqiqotlar S.S.Gulyamov, K.X.Abdurahmonov, R.H.Ayupov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva, O.Umarov va mamlakatimizning boshqa ko‘plab yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan olib borilgan. Raqamli iqtisodiyot sharoitida raqamli tadbirkorlik masalalari V.Yu. Pestov, B.G. Preobrajenskiy, N.A. Serebryakova, T.O. Tolstix kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida o‘z ifodasini topgan. Biroq, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini oshirish masalalari hali o‘z yechimini topmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot ishini yoritishda ilmiy abstraksiyalash, mantiqiy fikrlash, ma‘lumotlarni guruhlash va taqqoslash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. So‘nggi yillarda qabul qilinayotgan bir qator normativ hujjatlarda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi eng muhim vazifalardan biriga aylanganligini ko‘rish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi

“Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida 2023-yilga borib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2, ushbu sohadagi xizmatlar hajmini 3 baravar oshirish vazifasi qo‘yilgan. Shuningdek, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasida raqamli texnologiyalar va “raqamli” startaplarni rivojlantirish chora-tadbirlarida belgilangan ustuvor vazifalar fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi:

- axborot texnologiyalari sohasidagi startap va tadbirkorlik subyektlari loyihalarini moliyalashtirish tizimining muqobil mexanizmlarini joriy etish;

- innovatsion g‘oyalar, startaplar va venchur loyihalarini moliyalashtirish tizimining barqaror zanjirini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

- axborot texnologiyalari sohasida yangidan ish boshlagan va kichik korxonalariga startap-loyihalarni amalga oshirishda, innovatsiya faoliyati natijalarini investitsiyalarni jalb qilgan holda ko‘maklashish;

- axborot texnologiyalari sohasida tijoratlashtirish salohiyati baland bo‘lgan yuqori texnologik mahsulotlar yaratilishiga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari ishlab chiqilishini rivojlantirish;

- biznes korxonalari, universitetlar, ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlar o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan yuqori texnologiyali tadbirkorlik markazlari va klasterlarini yaratishga ko‘maklashish;

- texnoparklar, akseleratorlar va inkubatorlarni xakatonlar, tanlovlar va konferensiyalar orqali tizimli ravishda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va grant subsidiyalari berish¹.

“Osiyo rivojlanish istiqbollari”ning (ORI) (Asian Development Outlook) 2022-yilgi nashriga qo‘shimchada e‘lon qilingan Raqamli tadbirkorlik tizimlarining global indeksiga ko‘ra, Singapur dunyodagi eng yaxshi raqamli muhit va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash tizimiga ega. Ro‘yxatdagi 113 ta davlat orasida AQSh ikkinchi va Shvetsiya uchinchi o‘rinni egalladi. Ammo ro‘yxatga kiritilgan 21 ta rivojlanayotgan Osiyo davlatidan 17 tasi reytingning quyi pog‘onasida joylashgan bo‘lib, bu ularning ko‘pchiligi uchun raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish zarurati mavjud ekanligidan dalolat beradi.²

Raqamli texnologiyalarni tadbirkorlik sohasida joriy etish tovarlar va xizmatlarni tanlash, ularning sifatini yaxshilash, marketing faoliyatini yanada samarali olib borish, shuningdek, biznes yuritish jarayonini takomillashtirishga yordam beradi. Ushbu sohani raqamlashtirish pudratchi va buyurtmachilar bilan shartnomalar tuzish, xodimlarni jalb qilish va shartnomalarning bajarilishini nazorat qilishni osonlashtiradi. Biroq, O‘zbekistonda biznes jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasini hozircha yuqori deb bo‘lmaydi. Bunda asosiy muammo axborot texnologiyalarining yetishmasligida emas, balki inson omilida, chunki tadbirkorlarimiz raqamli texnologiyalardan foydalanishga hali to‘liq tayyor emas. Shuni ta’kidlash joizki, shiddatli o‘zgarishlar va islohotlar davrida tadbirkorlarning internet tarmog‘iga ulanmasdan, ya’ni raqamli texnologiyalardan foydalanmasdan turib biznesni rivojlantirishi mushkul. Bu o‘z navbatida, mamlakatimizda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga qo‘ymoqda.

Avvalambor raqamli tadbirkorlik tushunchasiga oydinlik kiritamiz. Raqamli tadbirkorlik - bu tadbirkorlik faoliyatining zamonaviy shakli bo‘lib, u o‘z faoliyatida raqamli texnologiyalardan, ya’ni internet, mobil texnologiyalar va raqamli platformalar kabilardan umumli foydalanishi bilan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli tadbirkorlik deganda, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan yaratadigan va boshqariladigan onlayn biznes demakdir. Shu nuqtayi nazardan, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyasiga veb-saytlarni ishlab chiqish, biznesni avtomatlashtirish, Internetda reklama qilish kabi ko‘nikmalari kiradi.

Mamlakatimizda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirishdagi asosiy muammo sifatida tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasining yetishmasligini ko‘rsatish mumkin.

Kompetensiya tushunchasi shaxsning biror maqsadiga erishishi uchun o‘zining ichki va tashqi resurslardan samarali foydalana olish qobiliyati bilan belgilanadi. Kompetensiyalar bu -

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son Farmoni

² <https://www.adb.org/uz/news/asia-must-improve-digital-environment-entrepreneurs-new-global-index-shows>

muayyan faoliyatni samarali bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va shaxsiy tajribalar yig‘indisidir. Har bir kasb sohasining o‘ziga xos vazifalari va ishbilarmonlik fazilatlarini mavjud bo‘lgani kabi, har bir mutaxassis uchun alohida kompetensiya darajasi ham mavjud bo‘ladi. Jumladan, raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik subyektlarining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi va raqobat bozorida ustunlikka erishishida ularning tadbirkorlik kompetensiyasi bilan bir qatorda raqamli kompetensiyasining rivojlanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Tadbirkorlik kompetensiyasi deganda, “shaxsning g‘oyalarni harakatga aylantira olish qobiliyati”ni tushunish mumkin. Shaxsning belgilangan maqsadga erishishda o‘zining ijodkorlik, innovatorlik, tavakkalchilik, loyihalarni rejalashtirish va boshqarish kabi qobiliyatlarini har xil vaziyatlarda namoyon eta olishi tadbirkorlik kompetensiyasining shakllanganligini ko‘rsatadi.

Zamonaviy sharoitlarda tadbirkorlik kompetensiyasining muhim elementlariga quyidagilar kiritiladi:

- **korporativ kompetensiyalar** korxonaga qadriyatlaridan kelib chiqqan holda shakllanib, xodimlarga munosabati, mijozlarga e‘tibor, sodiqlik, kasbiy rivojlanish kabilarda namoyon bo‘ladi;

- **boshqaruv kompetensiyalari** strategik fikrlash, yetakchilik, rejalashtirish va tashkil etish kabilarda biznes maqsadlariga erishish uchun zarur hisoblanadi;

- **kasbiy kompetensiyalar** tadbirkorlik faoliyati sohasidagi muammolarni hal etish, kutilmagan vaziyatlarda innovatsion fikrlash imkonini beradi;

- **raqamli kompetensiyalar** har xil turdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda professional, ijtimoiy, shaxsiy xarakterdagi muammolarni samarali hal qilish ko‘nikmalarining mavjudligi bilan belgilanadi.

Xulosa va takliflar. Jahonda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati oshib borayotgan bir davrda tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasining shakllanganligi mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shmoqda. O‘zbekistonda raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zaruriy me‘yoriy-huquqiy asos yaratilgan bo‘lsa-da, tadbirkorlarning raqamli kompetensiyasini rivojlantirishning tashkiliy, iqtisodiy va pedagogik asoslari hali yetarlicha o‘rganilmagan.

Respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va ularga axborot maslahat ko‘rsatishga xizmat qiluvchi infratuzilmalar mavjud bo‘lib, ular tomonidan har bir viloyat kesimida tadbirkorlarning raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinishi va shu asosida tegishli o‘quv kurslari tashkil etish chora-tadbirini belgilash maqsadga muvofiq. Bunda O‘zbekiston sharoitida raqamli tadbirkorlikni rivojlantirish uchun talab qiladigan kompetensiyalarni aniqlab olish va tanlangan kompetensiyalarni rivojlantirishning batafsil tashkiliy-metodik rejasini ishlab chiqish qo‘yilgan maqsadga erishishga yordam beradi.

Jumladan, respublikamizda tadbirkorlik sub’yektlarining raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish uchun muhim ko‘nikmalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Faoliyat jarayonida Microsoft Office dasturlar paketidan erkin foydalanish;
- Biznes boshqaruvida CRM (mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish) va ERP(korxonaga resurslarini rejalashtirish) tizimlarini joriy etish, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;
- Internet orqali biznes yuritish, biznes saytlarni ishlab chiqish va boshqarish;
- Xaridlarni tashkil etish va o‘tkazish uchun elektron platformalardan foydalanish.
- Raqamli axborot muhitida dasturiy mahsulotlardan foydalanish va h.k.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, tadbirkorlik subyektlarining raqamli kompetensiyasini rivojlantirish orqali mamlakatimizda raqamli tadbirkorlikni kengaytirish imkoniyati ortadi. Mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari o‘rtasida biznes jarayonlarini zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalardan foydalanib amalga oshirilishi boshqaruv xarajatlarini qisqarishiga, shuningdek, o‘zaro muloqotni tez va oson yo‘lga qo‘yilishiga, zamonaviy biznes modellarining innovatsion shakllarini rivojlanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Саидахмедова, Д., & Норбоева, Д. (2021). Ўзбекистонда стартап экотизимини

шакллантиришда инновацион муҳитнинг аҳамияти. Збiрник наукових праць SCIENTIA.

2. Saidbaxromovna, S. D., & Muhabbat, X. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida tadbirkorlik faoliyatini boshqarishga ta’sir etuvchi omillar. International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research, 124-128.

3. Саидахмедова, Д., & Хошимова, М. Ўзбекистонда бизнес-инкубаторларни ривожлантириш долзарб муаммо сифатида. Экономика, 838-842.

<p>Д.Саидахмедова</p> <p>Пути повышения цифровой компетентности субъектов предпринимательства</p> <p>Аннотация: Данная статья посвящена становлению цифрового предпринимательства в Узбекистане и развитию цифровой компетентности субъектов предпринимательства. В ней рассматривается концепция цифрового предпринимательства и цифровой компетенции.</p> <p>Ключевые слова: цифровая экономика, цифровые технологии, компетенция, предпринимательская компетенция, цифровая компетенция</p>	<p>D.Saidahmedova</p> <p>Ways to increase the digital competence of entrepreneurs</p> <p>Abstract: This article is devoted to the formation of digital entrepreneurship in Uzbekistan and the development of digital competence of entrepreneurs. In the article the concept of digital entrepreneurship and digital competence is considered.</p> <p>Keywords: digital economy, digital technologies, competence, entrepreneurial competence, digital competence.</p>
--	--

Шахноза Суюновна Рузиева – СамДУ Рақамли иқтисодиёт кафедраси 2-курс
ИРБ-201-гуруҳ магистранти

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАЪЛИМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ САМАРАСИ

<p>Аннотация: ушбу мақолада сунъий интеллект технологияларини таълим жараёнига жорий этишнинг аҳамияти, сунъий интеллектнинг мақсади, унинг асосий йўналишлари, таълим жараёнида қўллаш қандай самара бериши, афзалликлари, камчиликлари ҳамда келажақда таълимга қандай таъсир қилиши ҳақида фикр юритилган.</p> <p>Калит сўзлар: сунъий интеллект, технология, таълим тизими, таълим жараёни, ақли дастурлар, автоматлаштирилган тизим, интеллектуал тизим.</p>

Кириш. Бугунги шиддат билан ривожланиб бораётган рақамли иқтисодиёт шароитида мамлакатнинг халқаро майдондаги рақобатбардошлиги ва инновацион жиҳатдан тараққий этишини белгилаб берувчи омил сифатида таълим тизимини тубдан ислоҳ қилиш, ўқув жараёнига рақамли технологияларни жорий этиш масаласига катта эътибор қаратиш лозим. Бу борада рақамли иқтисодиёт ва унинг технологиялари ҳамда сунъий интеллект нима эканлигини тушуниб етиш таълимда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Шу сабабли ҳаммамиз учун замонавий билимларни ўзлаштириш, чинакам маърифат ва юксак маданият эгаси бўлиш узлуксиз ҳаётининг эҳтиёжга айланиши керак. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёев таъкидлаганларидек, “Тараққиётга эришиш учун рақамли билимлар ва замонавий ахборот технологияларини эгаллашимиз зарур ва шарт. Бу бизга юксалишнинг энг қисқа йўлидан бориш имкониятини беради. Зеро, бугун дунёда барча соҳаларга ахборот технологиялари чуқур кириб бормоқда”.

Дарвоқе, таъкидлаш жоизки, ХХ асрнинг охирида бугун дунё ўргимчак тўри деб аталадиган интернет тармоғи жамият ҳаётининг турли соҳаларига кириб келиши билан “электрон ҳукумат”, “электрон савдо”, “рақамли иқтисодиёт” ва “сунъий интеллект” каби атамаларни пайдо қилди.

Сунъий интеллект ҳозирги ахборот асрида ниҳоятда долзарб бўлиб, инсоният сунъий интеллект орқали ХХI асрнинг глобал муаммоларига илм-фанда янги имкониятларни кашф этиш йўли билан ижобий ечимларни топади. Шунингдек, бу тиббиёт, энергетика, қишлоқ хўжалиги, шаҳарсозлик ва бошқа барча соҳаларда, жумладан, таълим соҳасида сифатли хизмат кўрсатиш имкониятларини оширади. Шу сабабли ҳам бугунги кунда

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

2.06.2023 йилда теришга берилди. 21.06.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0045А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023